



The main functions of creative technologies in preparing future teachers for their profession

Eldar TADJIBAEV¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

10 August 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

15 October 2024

Keywords:

future teacher,
professional training,
creative technologies,
pedagogical innovations,
quality of education.

ABSTRACT

This article scientifically analyzes the importance and primary functions of creative technologies in the process of preparing future teachers for their profession. It demonstrates the role creative approaches play in enhancing the effectiveness of the educational process and in developing the creative and innovative potential of educators. Additionally, the article explores methods for practical application of creative technologies and their impact on the quality of education.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5-pp266-270>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlashda kreativ texnologiyalarning asosiy vazifalari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

bo'lajak o'qituvchi,
kasbga tayyorlash,
kreativ texnologiyalar,
pedagogik innovatsiyalar,
ta'lim sifati.

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlash jarayonida kreativ texnologiyalarning ahamiyati va asosiy vazifalari ilmiy asosda tahlil qilingan. Kreativ yondashuvlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda, pedagoglarning ijodiy va innovatsion salohiyatini rivojlantirishda qanday rol o'ynashi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, kreativ texnologiyalarni amaliy qo'llash usullari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri yoritilgan.

¹ Independent Researcher, Fergana State University. E-mail: eldar1986@gmail.com

Основные задачи креативных технологий в профессиональной подготовке будущих учителей

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

будущий учитель,
профессиональная
подготовка,
креативные технологии,
педагогические
инновации,
качество образования.

В данной статье на научной основе проанализированы значение и основные задачи креативных технологий в процессе профессиональной подготовки будущих учителей. Показана роль креативных подходов в повышении эффективности образовательного процесса, развитии творческого и инновационного потенциала педагогов. Также освещены методы практического применения креативных технологий и их влияние на качество образования.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi global va mahalliy ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o'zgarishlarga moslashishni talab qiladi. Shu munosabat bilan, pedagoglarning nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi, balki kreativlik, innovatsiyalarni joriy etish, muammolarni samarali hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarurati kuchaymoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlash jarayonida kreativ texnologiyalarning joriy qilinishi ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Kreativ texnologiyalar – bu ta'lim jarayonini interaktiv, innovatsion va shaxsga yo'naltirilgan shaklda tashkil etuvchi pedagogik yondashuvlar majmuasidir. Ular o'qituvchi va talabalar o'rtasida muloqotni kengaytirish, mustaqil fikrlashni rag'batlantirish, yangi g'oyalarni shakllantirish imkonini yaratadi. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlashda kreativ yondashuvlar nafaqat bilimlarni o'rgatishda, balki ularning ijodiy va innovatsion salohiyatini rivojlantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, ta'lim jarayonida kreativ texnologiyalarni samarali qo'llash o'quvchilarning o'ziga xosligi va talablari asosida pedagogik vazifalarni hal qilish, o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirish, shuningdek, zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni amalda tatbiq etish imkonini beradi. Mazkur maqola bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlashda kreativ texnologiyalarning asosiy vazifalarini ilmiy asosda yoritishga qaratilgan.

Bugungi kunda zamon shunchalar tez rivojlanib bormoqdaki, bu jarayon insonlar hayotini yaxshilanishiga olib kelish bilan birga, ular oldiga yaxshi yashash uchun bir qancha muammolarni ko'ndalang qo'ymoqda. Jamiyat taraqqiy etib, zamon tezlashgan sari insonlar orasida raqobat muhiti kuchayib bormoqda. Jahon mehnat bozorida yuqori malakali, o'z ishiga tanqidiy munosabat bilan yondashadigan, kreativ fikrlovchi, o'z ishining haqiqiy ustasi bo'lgan kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida, jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarini shakllantirishdir. Kreativ yondashuv asosida kasbiy ta'limga bo'lgan rag'bat bugungi yoshlarning ega bo'lishi kerak bo'lgan ko'nikmalardir. O'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish, ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Amerikalik olim D Veksler fikricha, “kreativlik” (lot.”kreatio -noyob fikrlash”) degan ma’noni bildiradi. U shaxsga muammo va masala yuzasidan birdaniga bir necha yechimlar paydo bo’lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar muhitidagi o’ziga xoslik noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi.

O’tgan asrning 60–70-yillari pedagogikada kreativlik muammosini O’rganishda keskin burilish yillari bo’ldi. 20-asrning 50-yillarida ingliz-amerika olimlari izlanishlarini kreativlik deb nomlagan. J.Gilford tomonidan 20-asrning 50-yillarida kreativlikni birinchi testlari yaratildi. Bu test orqali fikrlashning o’ziga xos tipini belgilashda 14 ta testdan foydalangan. Dastlabki 10 tasi og’zaki, 4 tasi tasvir orqali javob talab etilgan. Gilfordning testlari bilimlar natijasiga emas, tezligiga asoslanganligi testlarning samaradorligi kam bo’lishiga sabab bo’ldi. V.Arteyning izlanishlarida ijodkorlik uning mahsuli bo’lgan obyektga qarab baholanmaydi, deb aniq munosabat belgilandi. Uning fikricha: – kreativlik – bilim, faoliyat va istakning uyruqligidir.

Jorj Bernard Shou shunday deydi: “Ko’pchilik yiliga 2 yoki 3 marta o’ylaydi. Mening butun dunyoga mashhurligim sababi -haftasiga 1 yoki 2 marta o’ylaganimdir. Shundan kelib chiqsak, xayolga kelgan hamma narsalarni e’tibordan chetda qoldirmaslik hamda o’ylash uchun imkon yaratishimiz kerak ekan.

Har qanday mutaxassisda bola kabi biz, ya’ni bo’lajak pedagoglarning kreativ qobiliyatlarga ega bo’lishlari uchun talabalik davrlarida poydevor qurishimiz lozim. Pedagogning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatni kasbiy faoliyatni sifatli va samarali tashkil etishiga aynan, kreativlik sifatlariga ega bo’lishi kerak. Demak, bundan shuni anglash mumkinki, kreativlik ayni damda muvaffaqiyatga erishishimizning yo’lidagi asosiy vositalardan, kreativlik-bu insonni hayotga moslashishi emas, balki uni o’zgartirishdir.

Kreativlikning asosiy omili bu insonning dezadaptatsiyasi, ya’ni uni atrof olam va ijtimoiy muhitga moslasha olmasligida deb qaragan nazariyalar ham mavjud. Kreativlik insonda mavjud ma’lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularning cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Intellect esa o’sha ma’lumotni real amaliyotda qo’llashga va atrof muhitga moslashishga javob beradi.

Kreativlik tushunchasiga nisbatan bir-biriga zid bo’lgan turli qarashlar mavjud:

- 1) Kreativlik – bu insonning butun hayoti davomidagi sifatleri majmuidir.
- 2) Kreativlik – bu insonning o’zi topshirgan muayyan topshiriq va vazifalarni bajarish usulidir.
- 3) Kreativlik – bu intellekt (aql) ning mahsulidir.
- 4) Kreativlik – bu insonga Xudo tomonidan berilgan qobiliyat, kashfiyotlardir.
- 5) Kreativlik – bu ijodiy faoliyatdir.
- 6) Kreativlik – bu ijodkor insonlarning ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy adaptatsiyalanishidir.
- 7) Kreativlik – bu madaniyat bilan uzviy bog’liq bo’lgan kategoriyadir.
- 8) Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo’lib, uning o’z-o’zini takomillashtirib borishi bilan bog’liq.

Bugungi kunda bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy ko’nikmalarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo’llash dolzarb ahamiyatga ega bo’lib qolmoqda. Shu bilan birga, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda, baholash va nazorat qilish mexanizmlarini modernizatsiyalashda raqamli texnologiyalardan foydalanish muhimdir.

Bu borada, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etadi. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi". Shunday ekan, innovatsion axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga keng joriy etish va ulardan sifat va samaradorlikni oshirish maqsadida faol foydalanish zarur. Shu bilan birga, pedagoglarning kasbiy faoliyatida innovatsion pedagogik texnologiyalardan kengroq foydalanishni targ'ib etish, ularning ish unumdorligini oshirish hamda ta'lim berish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Bu orqali o'qituvchilarning bilim darajasini oshirish va o'quv jarayonini yanada samarali qilish imkoniyatlari kengayadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ko'nikmalarini innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish vazifalarini tahlil qilishdan oldin, "innovatsiya", "texnologiya" va "innovatsion pedagogik texnologiyalar" tushunchalarining mazmunini aniqlab olishimiz zarur. Shu maqsadda ushbu tushunchalarning lug'atlardagi ta'riflarini ko'rib chiqish foydali bo'ladi. Bu tushunchalarning aniq va to'liq tushunilishi, pedagogik faoliyatda ularning qo'llanilishining samaradorligini yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi, shuning uchun ularning mohiyati va qo'llanish sohalari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish maqsadga muvofiq.

S.Bozorova "Oliy ta'limda kasbiy-yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi" monografiyasida kasbiy-yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasini ta'lim oluvchilarda ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan muhim shaxsiy sifatlarni, shuningdek, ularning vazifalari bo'yicha funksional majburiyatlarni bajarishni ta'minlaydigan ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan texnologiya sifatida ta'riflaydi. Ushbu ta'rif texnologiya ta'lim jarayoniga qanday qilib integratsiya qilinishi va uni qanday qilib pedagogik amaliyotda qo'llash mumkinligi haqida chuqur tushuncha beradi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ham innovatsion pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o'qitish jarayonini loyihalashtirish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha bir qator ilmiy va uslubiy adabiyotlar yaratildi. Jumladan, B.Ziyomuhammadov va M. Tojiyevlar tomonidan yaratilgan "Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modeli" nomli uslubiy qo'llanmada rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinayotgan pedagogik texnologiya tamoyillari va zamonaviy hududiy modeliga asos solingan.

Yuqoridagi tahlillar asosida yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishsiz imkonsiz jarayon bo'lib qoladi. Pedagogika sohasida kasbiy kompetentlik tarkibi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Turli rakursdagi qarashlarda tadqiqotchilar pedagogik faoliyatning u yoki bu tarkibiy qismiga urg'u berishadi. Tahlillar asosidagi kasbiy kompetentlikning yaxlit holatdagi tarkibiy qismlari: kognitiv, kasbiy-texnologik, axborot, kommunikativ, metodik va boshqalardan iborat.

Kasbiy kompetentlik – bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishiga nisbatan ishlatiladi. Kasbiy kompetentlik bo'lajak o'qituvchining alohida bilim, malakalarning egallanishinigina emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislikka oid bilimlarni doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Demak, kasbiy kompetentlik integral xususiyatga egadir. U pedagogik faoliyat jarayonida paydo bo'ladigan vaziyatlarda kasbiy muammolar va kasbiy topshiriqlarni hal eta olish *qobiliyati* va *tayyorlik* darajasi bo'lib, bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy va hayotiy tajribani, qadriyatlar va madaniyatni ishga solishni nazarda tutadi.

XULOSA

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlashda kreativ texnologiyalarning joriy etilishi ta'lim jarayonining sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi. Kreativ yondashuvlar o'qituvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish, murakkab pedagogik vaziyatlarda samarali yechimlar topishga ko'maklashadi. Shuningdek, bu texnologiyalar talabalar o'rtasida mustaqil faoliyat, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Kreativ texnologiyalarning asosiy vazifalari – ijodkorlikni rag'batlantirish, muammoli vaziyatlarda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish, pedagogik faoliyatni yanada innovatsion qilish va ta'lim jarayonini talabalarning individual xususiyatlariga moslashtirishdir. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining yanada oshishiga olib keladi. Kelajakda kreativ texnologiyalarni yanada takomillashtirish, ularni bo'lajak pedagoglarning tayyorgarligida kengroq joriy etish, pedagogik jarayonga integratsiyalashgan holda qo'llashni rivojlantirish zarur. Shu bilan birga, mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va amaliyot bilan uzviy bog'lash muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Begimqulov A. Kreativ pedagogika asoslari. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2021. – B. 45-78.
2. Rasulov N. Innovatsion texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2019. – B. 112-135.
3. Shilov V. Creative Technologies in Education. – Moscow: Prosveshchenie, 2018. – P. 53-90.
4. OECD. Teaching and Learning: Creative Approaches. OECD Publishing, 2022. – P. 20-45.
5. Zokirova M., Tursunov R. Pedagogical innovations in higher education. – Samarkand: SamDU Press, 2020. – B. 99-124.